



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адиллов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш.....	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	<b>134</b>
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	<b>138</b>
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	<b>142</b>
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	<b>146</b>
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	<b>151</b>
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	<b>157</b>
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	<b>160</b>
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	<b>164</b>
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	<b>168</b>
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	<b>173</b>
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	<b>178</b>
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	<b>181</b>
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	<b>186</b>
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	<b>190</b>
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	<b>194</b>
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	<b>198</b>
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	<b>202</b>
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	<b>206</b>
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	<b>209</b>
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	<b>213</b>
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	<b>222</b>
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	<b>227</b>
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	<b>230</b>
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	<b>235</b>
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	<b>239</b>
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	<b>243</b>
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	<b>247</b>
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	<b>251</b>
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	<b>254</b>
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	<b>257</b>

3. Казанцева Н.В. Стратегическое региональное планирование: новые вызовы и проблемы. Журнал: Russian journal of management. Том 9 № 3, 2021
4. Nazarov N. Improving the Methodology for Developing a Strategy for Sustainable Development of Regions. Jurnal.: Economics and Innovative Technologies. January, № 1, 2023. P.303
5. Korshunov I.V. Sustainable Development in Regional Strategies: Approaches and Solutions. Economy of Regions. 2023. P.218
6. Muallif ishlanmasi.
7. Nazarov N.N. Conceptual foundations of state regulation of regional sustainable development. Muhandislik va Iqtisodiyot jurnal. № 1. 2025. 535-539 b.
8. Galan J., Analysis and Strategies for Sustainable Regional Planning: Sierra Calderona Strategic Plan, Spain. Springer. 2024.

**UDK:338**

**QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH  
HAJMINIGA OID QARASHLAR VA UNING MOHIYATI**

**ВЗГЛЯДЫ НА ОБЪЕМ ПРОИЗВОДСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СТРОИТЕЛЬНОЙ  
ОТРАСЛИ И ЕГО СУЩНОСТЬ**

**VIEWS ON THE VOLUME OF PRODUCTION IN THE ENTERPRISES OF THE  
BUILDING MATERIALS INDUSTRY AND ITS ESSENCE**

**Toshpulatov Asronbek Mutalibovich**

Andijon davlat universiteti bosh muhandisi, mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya**

Maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati, ishlab chiqarish hajmiga oid elementlar, uning mazmuni va mohiyati, jumladan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmiga oid qarashlar yozilgan.

**Kalit soʻzlar.** ishlab chiqarish hajmi, daraja, qurilish bozori sotuv, material hajmi, bozorga kirish va chiqish, reklama xarajatlari, xomashyo resurslari, reklama xarajatlarini risqlari.

В статье представлены взгляды на объем производства на предприятиях строительной отрасли и его сущность, элементы объема производства, его содержание и сущность, в том числе взгляды на объем производства на предприятиях строительной отрасли.

**Ключевые слова:** объем производства, уровень, продажи на строительном рынке, объем материалов, вход и выход с рынка, затраты на рекламу, сырьевые ресурсы, риски затрат на рекламу.

The article presents views on the volume of production in the enterprises of the building materials industry and its essence, elements of the volume of production, its content and essence, including views on the volume of production in the enterprises of the building materials industry.

**Keywords.** production volume, level, construction market sales, material volume, market entry and exit, advertising costs, raw materials resources, advertising costs risks.

Bugungi kunda qurilish sohasida yaratilayotgan mahsulot hajmini koʻpaytirish, obyektlarni oʻz vaqtida va belgilangan hajmda topshirish, tannarxni pasaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu sababli, qurilish sanoatida ishlab chiqarish hajmining oʻsishini taʼminlovchi ichki va tashqi omillarni aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qurilish sanoati korxonalarida samarali

natijalarga erishish, avvalo, ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirish va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan to‘liq foydalanish bilan bog‘liqdir. Bu jarayonda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish quvvatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, moddiy-texnik resurslardan oqilona foydalanish hamda qurilish-montaj ishlari hajmini kengaytirishga qaratiladi. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi korxonaning bozordagi ulushini oshirish, yalpi mahsulot hajmini ko‘paytirish va iqtisodiy natijalarni yaxshilashga xizmat qiladi [1].

Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu soha korxonalaridan ishlab chiqariladigan mahsulotlar qurilish jarayonlarining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi va qurilish hajmi hamda sifatini bevosita belgilaydi. Shu sababli, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini oshirish va uni samarali boshqarish dolzarb masalalardan biridir.

Ishlab chiqarish hajmi — bu korxonadan ma‘lum bir vaqt oralig‘ida ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdori bo‘lib, u korxonadan samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi va bozor talabini qondirish darajasini aniqlashda asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish hajmini oshirish nafaqat korxonadan daromadini ko‘paytiradi, balki mamlakatdagi qurilish sohasining barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi [2].

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish hajmini baholashda bir nechta jihatlarga e‘tibor qaratish lozim: ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish: texnologik jihozlar, xom ashyo va ishlab chiqarish liniyalari imkoniyatlari to‘liq ishga solinishi mahsulot hajmini oshiradi; mehnat unumdorligi: ishchi kuchining malakasi, ish tartibi va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mahsulot hajmiga bevosita ta‘sir qiladi; texnologik yangilanishlar va innovatsiyalar: yangi uskunalar va texnologiyalar joriy etilishi ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Resurslardan foydalanish samarasi: xom ashyo, energiya va boshqa materiallarni tejash orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish mumkin.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi qurilish materiallari korxonalaridan uchun strategik rejalashtirish va investitsiya qarorlarini qabul qilishda ham muhim omil hisoblanadi. Hajmning o‘shirish sur‘ati bozordagi talabni qondirish, narxlar barqarorligini ta‘minlash va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmi orqali korxonadan ichki resurslarini qayta taqsimlash va ishlab chiqarish sadoqatini oshirish yo‘llari aniqlanadi [3]. Xulosa qilib aytganda, qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmi — korxonaning asosiy ishlab chiqarish ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, uning o‘shirish nafaqat korxonadan daromadi va samaradorligini oshiradi, balki mamlakat qurilish sohasi barqarorligini ta‘minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Shu bois, ishlab chiqarish hajmini nazorat qilish, baholash va oshirishga qaratilgan kompleks choralar korxonalarining uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Loyihalarning uzoq muddatda amalga oshirilishi, katta hajmdagi xom ashyo va materiallar sarfi, texnik vositalardan keng foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayonlarining bir nechta bosqichlarda kechishi mahsulot hajmiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [4]. Shu sababli, ishlab chiqarish siklining uzluksizligini ta‘minlash, obyektlarni belgilangan muddatlarda foydalanishga topshirish va qurilish ishlari ko‘lamini kengaytirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qurilish materiallari ta‘minoti barqarorligi, moliyalashtirish manbalarining uzluksizligi va ishchi kuchi salohiyati ishlab chiqarish ko‘lamini belgilab beruvchi muhim omillar qatoriga kiradi. Natijada, qurilish sanoati korxonalaridan faoliyatida asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida ishlab chiqarish hajmini oshirish, mavjud quvvatlardan samarali foydalanish va bajarilayotgan ishlar miqdorini kengaytirish masalalari namoyon bo‘ladi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sanoat korxonalaridan faoliyati natijalarini baholash, avvalo, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qo‘shilgan qiymat miqdori va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi orqali amalga oshiriladi. Mazkur ko‘rsatkichlar ta‘sischilar, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘shirish, mahsulot tannarxining pasayishi va yalpi

tushumning ko‘payishi korxonaning bozordagi o‘rnini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish sur‘atlarining ortishi, yangi texnologiyalar asosida mahsulot hajmini kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish iqtisodiyotning real sektori faolligini belgilaydi [5]. Ishlab chiqarish ko‘lamining kengayishi aholi bandligini ta‘minlash, daromadlar o‘sishi va ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Shu bois, sanoat korxonalarini faoliyatini tahlil qilishda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish hajmi, uning o‘shirish dinamikasi va mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish darajasiga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu nuqtai nazardan, qurilish sanoati korxonalarini faoliyatini tahlil qilishda faqat an‘anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, ishlab chiqarish hajmi va uning o‘shirish dinamikasiga asoslangan kompleks yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ya‘ni, korxonalar faoliyati samaradorligi bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, materiallar sarfi va mahsulot tannarxi kabi ko‘rsatkichlar orqali har tomonlama baholanishi zarur. Bunda ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘shirish, obyektlarni belgilangan muddatlarda topshirish, innovatsion texnologiyalar hisobiga qurilish ishlari ko‘lamini kengaytirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish asosiy mezonlardan hisoblanadi. Shuningdek, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, texnika va uskunalarni yuklamasini oshirish, ishlab chiqarish siklini qisqartirish kabi omillar ham umumiy ishlab chiqarish natijasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi [3]. Bu esa qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatini qayta ko‘rib chiqish, mavjud quvvatlardan to‘liq foydalanish va ish hajmini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Natijada, ishlab chiqarish hajmini oshirish, uning barqaror o‘shirishini ta‘minlash va tannarxni pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etilishi lozim bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy sharoitda raqobat muhitining kuchayishi, bozor talablarining ortishi va global iqtisodiy jarayonlar ta‘siri ostida qurilish mahsulotlari hajmini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish obyektiv zaruratga aylanmoqda. Shuni ta‘kidlash lozimki, real sektor korxonalarini, avvalo, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ularning natijadorligi asosan ishlab chiqarish hajmi, yaratilgan mahsulot qiymati va qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa bunday yondashuv to‘liq mos kelmasligi mumkin, chunki unda moddiy mahsulot emas, balki xizmat natijasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, qurilish sanoati korxonalarini faoliyatini tahlil qilishda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish hajmi va uning o‘shirish sur‘atlariga qaratilishi maqsadga muvofiq [2]. Mazkur muammoni hal etish doirasida quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish mumkin.

Birinchidan, qurilish sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmini shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ularning ta‘sir darajasini belgilash zarur. Bunda asosiy ishlab chiqarish quvvatlari, mehnat resurslari, texnika va texnologiyalardan foydalanish samaradorligi muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlash orqali mahsulot hajmini barqaror oshirish masalasiga alohida e‘tibor berish kerak. Xom ashyo va materiallar ta‘minoti, qurilish obyektlarining o‘z vaqtida moliyalashtirilishi hamda ishlab chiqarish siklining muvofiqlashtirilishi hajm ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ishlab chiqarish hajmini baholashda nafaqat umumiy qiymat ko‘rsatkichlari, balki fizik hajm, bajarilgan ishlar miqdori, qurilish-montaj ishlarining ko‘lami kabi aniq ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu korxonaning real ishlab chiqarish salohiyatini aniqroq aks ettiradi.

To‘rtinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish va shu asosda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyatlarini izlash muhimdir [5]. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qurilish sanoati korxonalarini faoliyatini baholash va rivojlantirishda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish hajmini oshirish, uning barqaror o‘shirishini ta‘minlash hamda mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish masalalariga qaratilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Коломак Е.А. Межрегиональное неравенство в России: экономический и социальный аспекты // *Пространственная экономика*. 2010. №. 1. С. 132–150.
2. Николаев Ю. Н. Экономическая оценка условия безубыточной и эффективной деятельности предприятия // *Бизнес. Образование. Право. Вестник Волгоградского института бизнеса*. 2010. № 1 (11). С. 91—98.
3. Саломова С.С. “Саноат корхоналарини интеллектуал плотформа асосида самарали ривожлантириш (“Охангарон цемент” АЖ мисолида)” и.ф.ф.д., автореф. (PhD) 08.00.03-Саноат иқтисодиёти, -Тошкент. 2021, -24 б.
4. Хан Р.С., Коневец Д.А. Управление эффективностью деятельности строительного предприятия на основе маркетингового подхода. ISSN 2409-7616, ЦИТИСЭ №2 (28) 2021, -462 с.
5. Шамрай Л. В., Горбунова Е. Г. Оценка результативности управленческих решений по критериям экономической эффективности. // *BUSINESS. EDUCATION. LAW. BULLETIN OF VOLGOGRAD BUSINESS INSTITUTE*, 2014, № 2 (27). –С. 181-186. Subscription indices – 38683, P8683.

**UDK:338.46**

**BUGUNGI KUNDA RAQAMLI IQTISODIYOT**

**ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА СЕГОДНЯ**

**DIGITAL ECONOMY TODAY**

**Sanaqulova Aziza** O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,  
Matematika Iqtisodiyot yo‘nalishi, 3-kurs talabasi.

**Ochilova Ma’suma** O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,  
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi, 3-kurs talabasi.

**Annotatsiya**

Maqolada raqamli iqtisodiyotning dunyoda yuzaga kelishi, rivojlangan mamlakatlarda raqamlashtirish tizimining rivojlanishi, raqamli texnologiyalar roli, raqamli platformalarning kundan kunga ko‘payib borishi, raqamli pullarning vaqtimizni tejashi, raqamli iqtisodiyotning yaxshi va yomon tomonlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, platformalar, raqamli texnologiyalar, raqamli pullar, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, raqamli marketing, raqamli transformatsiya.

В статье рассматривается возникновение цифровой экономики в мире, развитие системы цифровизации в развитых странах, роль цифровых технологий, растущее число цифровых платформ, экономия времени с помощью цифровых денег, положительные и отрицательные стороны цифровой экономики. Разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию цифровой экономики в экономике Узбекистана.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, платформы, цифровые технологии, цифровые деньги, электронная коммерция, цифровой маркетинг, цифровая трансформация.

The article examines the emergence of the digital economy in the world, the development of the digitalization system in developed countries, the role of digital technologies, the increasing number of digital platforms, the saving of our time by digital money, the good and bad sides of the